

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SABUROVA NASIBA ROZUMOVNA

**QISHLOQ HUDUDLARINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
XO‘JAYLI TUMANI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
Oneconomics scienses**

Saburova Nasiba Rozumovna

Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va
prognozlash (Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani misolida)3

Сабурова Насиба Розумовна

Моделирование и прогнозирование социально-экономического развития
сельских территорий (на примере Ходжейлинского района Республики
Каракалпакстан).....27

Saburova Nasiba Rozumovna

Modeling and forecasting of socio-economic development of rural areas(using the
example of the Khuzhaily district of the Republic of
Karakalpakstan).....53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs. 03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SABUROVA NASIBA ROZUMOVNA

**QISHLOQ HUDUDLARINI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
XO‘JAYLI TUMANI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2019.2.PhD/Iqt873 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berkinov Bazarbay

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Ilyos Sultanovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ayubdjanov Abbos Xasilovich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (99871) 239-28-66, faks: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (99871) 239-28-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ da tarqatildi.

(2025-yil "____" _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoykulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida agrar islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ular eksportini ko‘paytirish, shuningdek, qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik qishloq hududlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. “Qishloq hududlari ishchilarini uy-joy bilan ta‘minlashning o‘rtacha darajasi Germaniyada 54,4 foiz, Norvegiyada 45,5 foiz, Polshada 52,2 foiz, Shveytsariyada 65,7 foiz, Italiyada 42,4 foiz, Qozog‘istonda 45,6 foiz, Ozarbayjonda 46,5 foizni tashkil etadi”¹. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotining barqaror va muvozanatli o‘rinishini ta‘minlashda qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellash va prognozlash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv qishloq hududlari salohiyatini samarali baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Jahonda kechayotgan global inqirozlar vaziyatining hozirgi sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda iqtisodiy va texnologik samaradorlik darajasini oshirish masalalariga yo‘naltirilgan qator izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy iqtisodiyotda mehnat va boshqa iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy iqtisodiyot samaradorligining uzoq muddatli farovonlikka ta‘sirini baholash, global iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlariga aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan moslashuvchanligini ta‘minlash, sanoat ishlab chiqarishida raqamlashtirish, zamonaviy innovatsion ishlanmalar salmog‘ini oshirish kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston agrar iqtisodiyotida bozor munosabatlarini jahon andozalariga mos rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi eng muhim shartlardan biri bo‘lib qishloq hududlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va xo‘jalik yuritishning iqtisodiy usullaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hisoblanmoqda. Shu bilan bir vaqtda murakkab ekologik sharoitda yashovchi aholining manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, xom-ashyo va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste‘moli va eksportini, qayta ishlash korxonalari, infratuzilmalarini yanada rivojlantirish Yangi O‘zbekiston strategiyasida muhim vazifalar qatoriga kiradi². Bularning barchasi tumanlarda qishloq xo‘jalik tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish, natijada qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini mustahkamlash, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va ijtimoiy xizmat bilan ta‘minlash darajasini oshirishga keng yo‘l ochadi. Ushbu jarayonlarni tadqiq qilishning samarali vositalaridan biri – bu qishloq hududlari

¹ <https://w3.unece.org/PXWeb/ru/CountryRanking?IndicatorCode=11>

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, - 2021. – 464 b.

rivojlanishini modellashtirish va prognoz qilish usullarini ishlab chiqish hisoblanadi. Shu munosabat bilan, kichik va o'rta qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari modellari va algoritmlarini ishlab chiqish tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi. Shu bilan birga tuman qishloq hududlari rivojlanish dasturlari bilan bog'liq muhitda axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish platformasi asosida ko'p variantli qarorlarni asoslashga imkoniyat beruvchi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning hozirgi bosqichdagi ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” Strategiyasi to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-son “2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakat olimlaridan A.V.Chayanov, I.Glebov, V.K.Krutikov, Y.V.Zaysev, O.F.Fedorov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida kichik, o'rta va yirik xo'jaliklarda ishlab chiqarish va mehnatni samarali tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishlari asoslangan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish, uning tarmoqlarida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolariga O'P.Umurzoqov, S.S.G'ulomov, A.M.Qodirov, N.S.Xushmatov, Q.A.Choriyev, T.X.Farmonov, F.T.Egamberdiyev, L.F.Amirov va boshqa olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlanish jarayonini matematik modellashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini amaliyotga qo'llashning ilmiy-uslubiy asoslariga S.S.G'ulomov, T.Sh.Shodiyev, A.Abdugafarov, B.Berkinov, B.Begalov, S.Sh.Mirziyoyeva, Sh.I.Mustafoqulov, D.Muxamediyeva, B.Xodiyev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bag'ishlangan³. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ekonometrik

³ G'ulomov S.S., Ayupov R.G., Abdullayev O.M., Boltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari// Toshkent, 2019; Шодиев Т.Ш. Эконометрические модели развития сельского хозяйства. – Ташкент. Фан, 1986-166 с.; Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства.- Ташкент: Ф,

modellashtirish va ular faoliyatini prognozlashtirishning ilmiy-uslubiy masalalari O.Xatamov, I.Abdullayev, T.Doschanov, J.Suxanov, N.O‘rmanov, A.Almurodov, X.Asadov, Z.Usmonov, M.Niyazov, R.Urunov, Q.Utegenov, S.N.Gabbarov, B.Mambetnazarov va boshqalar tomonidan keng o‘rganilgan⁴.

Shu bilan bir qatorda bozor munosabatlari chuqurlashuvi sharoitida qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolini prognoz qilish variantlarini aniqlashning modellari va uslubiy asoslari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shularni hisobga olganda qishloq hududlarini yanada rivojlanishining muqobil variantlarini prognoz qilish va baholash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi va bu ushbu dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari doirasini belgilab beradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi murakkab ekologik sharoitda qishloq hududiy tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

murakkab ekologik sharoitda qishloq hududiy tizimlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholashning maqsadi, vazifalari va mezonlarini asoslash;

qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini modellashtirishning funksional tarkibini asoslash;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibini va sotish kanallari bo‘yicha taqsimlashning blokli modelini ishlab chiqish;

aholining daromadlari va xarajatlari balansining modellarini va ijtimoiy sohani rivojlanishini prognozlashtirish algoritmlarini ishlab chiqish;

qishloq hududining ijtimoiy sohasini rivojlantirishning muqobil variantlarini prognoz qilish;

1990. -127 с.; Мирзиеева С.Ш. Анализ опыта Узбекистана по разработке стратегий развития страны и регионов // Управленческое консультирование. - 2019. - №3. - с. 49-61.; Мустафокулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. Монография. – Т.: Академия ноширлик маркази. 2017 й.; Абдуғафаров А. Ўзбекистан на пути цифровизации: начало и нынешнее положение. НИИ развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. Материалы конференции, 2021 г. Abdugaffarov_abduhalil.ru.; Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Информационно-коммуникационные технологии в эффективной организации статистической деятельности в условиях формирования инновационной экономики. «Фан» нашриёти, 2013 й.; Ходиев Б.Ю. Ўзбекистон иқтисодиётида тадбиркорлик ривожланишини эконометрик моделлаштириш. Иқт.ф.докт.диссер. автореферати. –Т:ТДИУ, 2000-38 б.; Мухамедиева Д.Т. Разработка моделей слабо формализуемых процессов и принятие решений на основе обработки нечеткой информации.: Автореф. дис. докт. тех. наук. – Ташкент. АН РУз НТЦ «Современные информационные технологии», 2006. -35 с.

⁴ Хатамов О.К. Қишлоқ хўжалик техникаси лизингига инвестициялар жалб этиш жараёнларини моделлаштириш. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.-Т.: ТерДУ, 2007.-1426.; Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2020. - №4 (3). – с. 251-262.; Усманов З.К., Ниязов М.А. Приоритетные направления развития промышленности в Республике Каракалпакстан // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2015. - №8. – с. 127-131; Урунов С.Д. Худудларнинг барқарор ривожланиш мақсадларини статистик баҳолаш ва прогностлаш (Хоразм вилояти мисолида). Автореферат PhD. Тошкент. 2023; Утегенов Қ.Дж. Қишлоқ хўжалигида давлат – хусусий шериклиги асосида лизинг муносабатларини такомиллаштириши. Автореферат PhD. Нукус, 2022; Gabbarov S.N. Chorvachilikni rivojlantirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ngiroi tumani misolida). Avtoreferat PhD. Nukus, 2023.

tuman qishloq xo'jaligini rivojlanishining prognoz variantlarini ishlab chiqish va tahlil qilish;

qishloq hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbolda o'zgarishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi, jumladan, Xo'jayli tumani iqtisodiyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlashtirish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy va statistik tahlil, matematik va ekonometrik modellashtirish, prognozlash, iqtisodiy o'lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

murakkab ekologik sharoitda faoliyat yuritayotgan qishloq hududida aholini ish bilan band qilish, ular turmush sifatini yaxshilash va mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirish "aholi sifati" mezon, modeli va algoritmlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

qishloq hududlarida dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning yaqin va o'rta istiqbolda rivojlanishi aholining oziq-ovqatga bo'lgan iste'mol talabi, mahsulotlar ishlab chiqarish va taqsimlash balansi o'zgarishining ko'p omilli dinamik qatorlari sifatida takomillashtirilgan;

qishloq hududlari aholisi tarkibi o'zgarishining uzoq muddatli tendensiyalari asosida ijtimoiy soha obyektlarining istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini davrlar kesimida tahlil qilish orqali qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlash takomillashtirilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish, byudjet daromadlari va xarajatlarining istiqbolda o'zgarishini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2030 yilga qadar muqobil variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududda yashaydigan aholining sifat darajasini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

Xo'jayli tumanining iqtisodiy o'sishini asosiy maqroiqtisodiy ko'rsatkichlari taqqoslama tahlil qilingan;

qishloq hududlarini funksional vazifalarining o'zaro axborot aloqalari va ularning platformasi yaratilgan;

qishloq hududida aholi daromadlari va xarajatlari balansi modeli va algoritmlari ishlab chiqilgan;

Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligi rivojlanishining tahlil va prognoz ko'rsatkichlari asoslangan;

Xo'jayli tumanining ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari 2024-2025 va 2030 yillarga prognoz qilingan;

Xo'jayli tumani aholisi soni, byudjet daromadlari, xarajatlari, investitsiyalar hajmi ekonometrik modellar asosida prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur dissertatsiyaning va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchliligi, tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul

va uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirliklari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi kabi tashkilotlarning rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkiloti tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida taklif etilgan uslubiy yondashuv, modellar va algoritmlar kompleksi qishloq hududi aholisining iste'mol tovarlari va pullik xizmatlarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga bo'lgan ehtiyojlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan matematik modellar va algoritmlardan agrar soha mutaxassislari uchun ish joyini raqamlashtirish loyihalarini ishlab chiqish va qishloq hududlarining hokimliklarida axborot-hisoblash tizimini yaratishda, variantli hisob-kitoblardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi amaliyotida, mazkur tadqiqot ishining ilmiy-amaliy, nazariy-konseptual asoslari va natijalaridan "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti", "Ijtimoiy iqtisodiyot" fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

murakkab ekologik sharoitda faoliyat yuritayotgan qishloq hududida aholini ish bilan band qilish, ular turmush sifatini yaxshilash va mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirish "aholi sifati" mezoni, modeli va algoritmlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish taklifidan Xo'jayli tumani qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 27-maydagi 05/07/04/208-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududda aholi bandligi, ularning yashash sifati va daromadlari oshishining asoslanganlik darajasini yaxshilash imkoni yaratilgan;

qishloq hududlarida dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning yaqin va o'rta istiqbolda rivojlanishi aholining oziq-ovqatga bo'lgan iste'mol talabi, mahsulotlar ishlab chiqarish va taqsimlash balansi o'zgarishining ko'p omilli dinamik qatorlari sifatida takomillashtirish taklifidan Xo'jayli tumani dehqonchilik va chorvachilik sohalarini istiqbolda rivojlanish ko'rsatkichlarini asoslashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 27-maydagi 05/07/04/208-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Xo'jayli tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2030-yilda 2023-yilga nisbatan qariyb 40 foiz ortishi mumkinligi aniqlangan;

qishloq hududlari aholisi tarkibi o'zgarishining uzoq muddatli tendensiyalari asosida ijtimoiy soha obyektlarining istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini davrlar kesimida tahlil qilish orqali qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini

modellashtirish va prognozlashni takomillashtirish taklifidan Xo‘jayli tumanining ijtimoiy soha obyektlarini boshqarish bo‘limida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 27-maydagi 05/07/04/208-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Xo‘jayli tumani ijtimoiy soha obyektlarida talab va taklif muvozanatiga erishish imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanining asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish, byudjet daromadlari va xarajatlarining istiqbolda o‘zgarishini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan muqobil variantli prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Xo‘jayli tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 27-maydagi 05/07/04/208-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Xo‘jayli tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha asoslangan boshqaruv qarorini qabul qilish imkoniyatlari kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 131 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti asoslangan. Shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari izohlangan hamda tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida murakkab ekologik sharoitda qishloq aholisi farovonligini oshirish, ular joylashgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholash mezonlari, dasturiy maqsadi, vazifalari va modellashtirish tamoyillari asoslangan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini yo‘lga qo‘yishning kuchli vositasi sifatida qaralmoqda. Unda mehnat, turmush, madaniyat va insonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishning ijtimoiy

masalalarini yechish barcha davlat va xo‘jalik organlari, shu jumladan, jamoat tashkilotlarining asosiy faoliyati hisoblanishi belgilangan. Shularni hisobga olib, dissertatsiyada murakkab ekologik sharoitda, jumladan, Orolbo‘yi hududida qishloq aholisining ijtimoiy va iqtisodiy turmush sharoitlarini yanada yaxshilash bo‘yicha konstruktiv choralarni ishlab chiqish, bunda demografik rivojlanish va qishloq aholisi farovonligi uchun o‘rta va uzoq muddatli maqsadli dasturni ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. Bunday dasturning pirovard maqsadi – ijtimoiy siyosat mazmuniga muvofiq barkamol, ma‘naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish talablariga javob beradigan moddiy, ijtimoiy va madaniy ne‘matlar iste‘molida qishloq hududi aholisining farovonligini sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarishni ta‘minlaydigan eng muhim yo‘nalishlar va vositalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Shularni hisobga olganda, murakkab ekologik vaziyatga ega bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Avvalo, hozirgi demografik vaziyat, aholining ko‘payish tendensiyalarini baholash, aholi soni, mehnat resurslari va ularning yoshi va yosh tarkibi bo‘yicha prognozlashni amalga oshirish kerak. Shu asosda hududda olib borilayotgan demografik holat va umuman hududdagi mehnat resurslarining bandligiga nisbatan demografik siyosatning eng muhim yo‘nalishlarini aniqlash kerak.

2. Aholi turmush darajasining eng muhim ko‘rsatkichi kishi boshiga oziq-ovqat va boshqa ne‘matlarning iste‘moli hisoblanadi. Shuning uchun aholining oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini ularning narxi bilan prognozlash, birinchidan, aholi daromadlarining zarur darajasini, ikkinchidan, qishloq aholisi iste‘moli uchun ajratilgan ishlab chiqarish hajmlarini aniqlashga imkon beradi. Dasturda aholining o‘ssishi, aholi jon boshiga ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda oziq-ovqat ta‘minotini prognozlash alohida bo‘lim sifatida qaralishi kerak. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha prognozlash ko‘zda tutiladi. Bunda qishloq xo‘jaligida ekologik vaziyat, yer, suv va mehnat resurslarining cheklanganligi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, fermer va dehqon xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi va boshqa qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisobga olinishi kerak.

3. Dasturda qishloqning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish muammosiga katta o‘rin ajratilishi kerak. Aholining o‘ssishi hisobga olinishi bilan qishloqning uy-joy, sog‘liqni saqlash muassasalari, bolalar bog‘chalari va maktabgacha bo‘lgan ehtiyojini prognozlashni amalga oshirish zarur. Bularning barchasi qishloqni ijtimoiy qayta qurish dasturining tegishli bo‘limlarini ishlab chiqishga va unga erishish yo‘llarini belgilashga imkon beradi.

4. Qishloqning ijtimoiy rivojlanishini qishloq xo‘jaligi va moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarining ishlashi va rivojlanishi iqtisodiy sharoitlaridan ajratilgan holda ko‘rib chiqishi mumkin emas.

Yuqoridagi metodologik tamoyillarni hisobga olib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi samaradorligini baholash mezonini ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash mezonlari bo‘yicha olimlarning turli xil qarashlari mavjud. Ular ishlarida turli

darajadagi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezonlari sifatida “talab va iste’mol” ko‘rsatkichi taklif qilingan⁵. Shu bilan birga bizning fikrimizcha, tabiiy muhit va ishlab chiqarish, moddiy boylik darajasi saqlanishida “aholi sifati” ko‘rsatkichini hududning rivojlanishini baholash mezoni sifatida taklif qilish mumkin. Buning uchun hududda yashaydigan aholining sifat darajasi koeffitsiyentini (K_N) hisoblash lozim. Koeffitsiyent quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$K_N = 1 - \frac{\Delta N}{N}, \quad (1)$$

bu yerda: N – joriy yilda aholining tabiiy o‘sish soni;

ΔN – tabiiy o‘sishda fiziologik nuqsonli aholi soni.

Agar aholi ko‘payishi t – vaqtda baland bo‘lsa, ya’ni $K(t) \rightarrow 1$ ga intilsa, u holda aholining sifat darajasini o‘lchash uchun ko‘payishning o‘rtacha koeffitsiyenti ishlatilishi mumkin, ya’ni:

$$J_{or}(t) = \frac{1}{N} \sum J_j(t), \quad (2)$$

bu yerda: $J_j(t)$ – aholining j -jinsiy guruhiga kiruvchilar ko‘payishining intellektual koeffitsiyenti.


Taklif etilayotgan mezonning mohiyati – aholi soni va uning sifati zarur moddiy tovarlarni ishlab chiqarish insonlarning tabiiy yashash muhiti ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelmaydigan darajada saqlanishi kerak. Bunday modelni amalga oshirish uchun aholi, tabiiy muhit, ishlab chiqarish tizimlari yaratilishi zarur. Bunday tizimlarning tarkibiy qismi mahalliy va hududiy tizimlar bo‘lishi kerak, chunki bu tizimlar tovar ayirboshlash va takror ishlab chiqarishda o‘zaro bog‘liq. Shunday kelib chiqish bilan hududiy rivojlanish modeli quriladi. Uning asosiy sharti tabiiy muhitni saqlab qolish va bu hududda zarur bo‘lgan yashash sifatini ta’minlash hisoblanadi.

Ushbu takliflarni amalga qo‘llash mumkinligi tabiiyki, yashash sifati va iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlarga chiqishni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi asosida hisob-kitoblar uchun modellar tizimi ishlab chiqilishi kerak.

Shu munosabat bilan biz dissertatsiyada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning modellarini ishlab chiqish uchun hududiy tizimlar unsurlarini tuzilmalarga ajratishga harakat qildik. Buning uchun mavjud hududlar katta, o‘rta va kichik qishloq hududlariga bo‘lindi. Katta hududlar – bu viloyatlar yoki mintaqalarning hududlari (viloyatlar), o‘rtacha hududlar – ma’muriy tumanlar, areallar yoki mikrozonalar hisoblanadi. Kichik qishloq hududlari – bu mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, qishloq xo‘jalik majmuasi yoki boshqa tarmoqlarning turli xil ishlab chiqarish turlari to‘plangan bir yoki bir necha fermer xo‘jaliklarining hududlari

⁵ Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2020. – Том 4. – № 3. – С. 251-262. – doi: [10.18334/asia.4.3.110805](https://doi.org/10.18334/asia.4.3.110805); Николаев М.А., Махотаева М.Ю. Региональная экономика и управление территориальным развитием. Учебное пособие. – Псков: Псковский государственный университет, 2014. – 256 с.; Основы системного подхода и их приложение к разработке территориальных автоматизированных систем управления [Текст] / Б.А. Гладких, В.М. Люханов, Ф.И. Перегудов [и др.]; [Под ред. Ф. И. Перегудова]. - Томск: Изд-во Том. ун-та, 1976. - С. 17-22.; Погонин А.В. Экономическое развитие региона с учетом кластерного подхода в контексте экономики города. Вестник Пермского университета. 2012. Экономика. Вып. 4 (15). – С. 25-36.

hisoblanadi. Shularni hisobga olib tadqiqotda tabiiy muhit, ishlab chiqarish va aholi o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro bog'liqligining prinsipial chizmasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Hududiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi unsurlarning o'zaro bog'liqligi⁶


Ta'kidlash joizki, har qanday hududda uchta o'zaro bog'liq tizim – tabiat, aholi, ishlab chiqarish mavjud. Aholi tabiatning bir qismi sifatida, tabiat unsurlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ayni paytda ularning iste'molchisi ham hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi aholisi 36,0 milliondan ko'pni tashkil etdi, shundan 17,6 million kishi – shaharliklar, 18,8 million kishi – qishloq aholisi. Shahar va qishloq aholisi nisbati 1980-yildan boshlab barqarorlashdi (49:51). Shu bilan birga ularning mutlaq o'sishi kuzatilmoqda. O'zbekistonda 2010–2022-yillarda aholining umr ko'rish davomiyligi hisob-kitoblarga ko'ra 75,6 yoshni tashkil qildi, shu jumladan, erkaklar – 73,1 va ayollar – 78,0 yoshni yoki 2010-yilga nisbatan 2022-yilda ayollar umr ko'rish 2,9 va erkaklar yoshi esa 2,5 ga uzaygan. Ushbu ma'lumotlar ko'rsatib turibdiki, yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari aholisining miqdoriy o'sishi “sifatli” o'sish bilan birga bo'lishi kuzatilmoqda.

Hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchta omilga – sug'orishga yaroqli yerlarning mavjudligiga (A_1), suv resurslariga (A_2) va vegetatsiya davrining davomiyligiga (A_3) bog'liq. Qoraqalpog'iston hududida sug'oriladigan yerlar 418,8 ming gektarni tashkil etadi. Xo'jayli tumanida qishloq xo'jalik yerlarining 21,2 ming gektari yoki 48,8 % sug'oriladigan yerlar bo'lib, uning 19,7 ming gektari ekiladigan maydonlar hisoblanadi. Shularni hisobga olganda, qishloq hududlarini yanada rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, yer suv va moddiy resurslarning holati va hajmlariga bog'liq. Shuning uchun ular, bu hududda yashovchi insonlarning normal hayoti va faoliyati uchun yaroqli bo'lib qolishi kerak.

⁶ Saburova Nasiba. “Qishloq hududlarining rivojlanish samaradorligini baholash mezonlari”. “Yangi O'zbekistonda yangi izlanishlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi, 5-Mart, 2025-yil.

Ushbu bog‘liqliklar asosida, qishloq hududiy tuzilmalari obyektlarining funksional vazifalari va rivojlanish xususiyatiga muvofiq aholining ijtimoiy farovonligi, qishloqda ishlab chiqarishni, mehnat resurslarining bandligi, kapital qurilish, yengil, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohaslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning kompleks dasturi ishlab chiqildi (2-rasm).

Dasturning qishloq hududini o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasi – bu mavjud resurslardan oqilona foydalanish, aholini oziq-ovqat va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan iste‘mol tovarlari bilan to‘liq ta‘minlashga imkon beradigan samarali ishlab chiqarish tuzilmasiga o‘tish hisoblanadi. Bunda rivojlanish asosini aholi sonini prognozlash va mehnat resurslarini foydali ish bilan band qilish orqali ularga munosib turmush darajasini ta‘minlash bosh maqsad bo‘lib qoladi.



2-rasm. Qishloq hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning kompleks dasturlarini o‘zaro axborot aloqalari⁷

Shuni e‘tiborga olib dissertatsiyada qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari bo‘yicha funksional vazifalar tizimi ishlab chiqildi va ular o‘zaro bog‘liq ravishda quyidagi bloklarga bo‘lindi: 1) demografik; 2) qishloq xo‘jaligi; 3) qayta ishlash korxonalarining quvvatlari; 4) ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar; 5) noishlab chiqarish sohasini rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash bloklari.


Dasturga kiritilgan ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish axborot-kommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot hamda matematik modellashtirish usullarini qo‘llash bilan bog‘liqdir.

Dissertatsiyaning **“Qishloq hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining modellar tizimini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi

⁷ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bobida, qishloq hududini rivojlantirish modellar tizimini ishlab chiqish tamoyillari, kengaytirilgan axborotlar bazasi platformasi, ikki blokli model va algoritmlar tizimi asoslangan.

Qishloq aholisi farovonligini oshirishga real shart-sharoitlar yaratish uchun o'rta (tuman) va yirik (viloyat, respublika) hududlar darajasida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zi yetarli emas. Shuni hisobga olib, biz dissertatsiyada ishlab chiqarish, iste'mol va xizmatlarning uyg'un rivojlanishini kengaytirilgan axborotlar bazasi platformasini yaratish asosida modellar tizimini ishlab chiqdik. Shularni inobatga olib qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish masalalarini yechish modellari bir necha bosqichlarga bo'lindi (3-rasm).



3-rasm. Qishloq hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellari orasidagi o'zaro axborot aloqalari⁸

Birinchi bosqichda aholining iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash bilan bog'liq masalalar, ikkinchi bosqichda mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish, qishloq hududlari bo'linmalarining moddiy, mehnat va boshqa resurslarga ehtiyojlari aniqlanadi. Uchinchi bosqichda moliyaviy ko'rsatkichlar, aholi daromadlari va xarajatlarini balanslash, ijtimoiy soha obyektlari ko'rsatkichlari bo'yicha prognoz masalalari yechiladi. Bunday masalalar kompleksi quyidagi modellar va algoritmlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Aholi soni va mehnat resurslarini prognoz qilish modeli; 2. Iste'mol va xizmatlar, xarajatlar va asosiy ishlab chiqarish resurslari qiymatini hisoblash algoritmlari; 3. Ekinlar hosildorligini, chorva mollari va parrandalarning mahsuldorligini prognozlash modellari; 4. Aholining iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini hisoblash algoritmlari; 5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishni prognozlantirish modellari; 6. Aholining dehqon (tomorqa) xo'jaligini rivojlantirish modellari; 7. Yordamchi va kichik xususiy sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish modeli; 8. Ijtimoiy sohani rivojlantirish modeli; 9. Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yig'ma ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmlari;

⁸ Manba: muallif ishlanmasi.

10. Iste'molchilarning yashash minimumini hisoblash algoritmi; 11. Aholi daromadlari va iste'mol sarflarini muvofiqlashtirishning balanslash modeli.

Ushbu modellar va algoritmlar to'plamini ishlab chiqishning boshlang'ich nuqtasi aholi soni va mehnat resurslarini (1) prognozlash modeli hisoblanadi. Prognozdan oldingi tahlil va istiqbolda aholi sonining jinsi va yosh guruhlari bo'yicha o'zgarishi dinamikasi ko'p va bir omilli ekonometrik modellar asosida amalga oshiriladi.

Aholi guruhlari bo'yicha real iste'mol me'yorlari (2) tovarlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni hisoblash algoritmlarini amalga oshirish uchun foydalaniladi (4).




4-rasm. Asosiy demografik ko'rsatkichlarning axborotlar bazasi platformasi⁹

⁹ Manba: muallif ishlanmasi.


Buning natijalari boshqa modellar va algoritmlar uchun kirish axborotlar bazasi bo'lib xizmat qiladi va mohiyatan qishloq hududlarida mahsulotlarga talab, ishlab chiqarish va sotishni aniqlash uchun zarur hisoblanadi. Ushbu modellar axborotlar bazasi platformasi 4-rasmda keltirilgan.

Ekinlar hosildorligi, chorva mollar va parrandalarning mahsuldorligini prognoz qilish bir va ko'p omilli modellarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosida bajariladi (3). Ekinlar hosildorligi va chorvachilik mollari mahsuldorligini prognoz qilish uchun asosiy omillarni tanlash, ular orasidagi o'zaro aloqa shaklini o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Natijada, qishloq hududlari kesimida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, chorva mollari va parrandalar mahsuldorligining prognozlari shakllantiriladi.



5-rasm. Dehqonchilik tarmoqlari ko'rsatkichlarining axborot bazasi platformasi¹⁰

¹⁰ Manba: muallif ishlanmasi.



6-rasm. Chorvachilik tarmoqlari klasteri ko'rsatkichlarining axborot bazasi platformasi¹¹

Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari ko'rsatkichlarini prognozlash axborotlar bazasi platformasi 5- va 6-rasmlarda keltirilgan.

Hosildorlik va mahsuldorlikni prognoz qilish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj, ishlab chiqarish resurslari xarajatlarini hisoblash asosida ishlab chiqarish, agrosanoat mahsulotlarini sotish modeli ishlab chiqilgan (5). Aholi dehqon (tomorqa) xo'jaligini rivojlantirish modeli (6) uning real holatini retrospektiv tahlil qilish asosida ekinlar va chorvachilik mahsulotlarini ishlab

¹¹ Manba: muallif ishlanmasi.

chiqarishni ko'paytirishning ma'lum zaxiralarini aniqlashga imkon beradi. (4) va (6) modellar kichik sanoat korxonalari (7) mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash modeli bilan axborot aloqalariga ega.

Murakkab ekologik sharoitda qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ko'rsatkichlarini modellashtirishning navbatdagi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirish modeli (8) hisoblanadi. Yangi xo'jalik yuritish sharoitlarida ijtimoiy sohani rivojlantirishning moddiy-texnik ta'minoti, fermer xo'jaliklari va korxonalar, shu jumladan, davlat subsidiyalaridan foydalanish orqali aniqlanadi. Shuning uchun (8) model (1), (4) - (7) modellar bilan kirishda, chiqishda esa qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yig'ma ko'rsatkichlarini hisoblash modeli (9) bilan axborot aloqasiga egadir.

Qishloq hududlari aholisi o'z faoliyatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan, yashash minimumini hisoblash algoritmlari (10) va aholining daromadlar va xarajatlarini muvofiqlashtirish balansli modeli (11) eng katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu model va algoritmlar yordamida aholining turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq davlat chora-tadbirlari bilan birgalikda mahalliy sharoitlarni va real ichki hududiy imkoniyatlarni obyektiv hisobga olish mumkin.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan axborotlar platformasi kichik va o'rta qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil va prognoz qilish uchun ishlatiladi va qishloq tumanini rivojlantirish modellari bilan vertikal axborot bog'liqligiga ega hisoblanadi.

Shularni hisobga olib dissertatsiyada qishloq hududini bosh maqsadi sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va mahsulotlar taqsimotining muvozanati va ijtimoiy rivojlanishining umumiy matematik modeli ishlab chiqilgan. Model ikki blokdan iborat. Birinchi blok: yer resurslari maydonlarining va chorvachilik tarkibini muqobillashtirish. Ikkinchi blok: mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash balansi, moddiy-texnik va mehnat resurslariga bo'lgan talabalarni prognozlarini hisoblashning imitatsion algoritmlaridan iborat.

Birinchi blok modelini tavsiflash uchun uning axborot bazasi platformasiga alohida belgilashlar kiritilgan. Indeksalar: j - sug'oriladigan (j_1) va la'lni (j_2) yerlarga ekiladigan ekinlar, ko'p yillik daraxtlar navlari, yaylovlar va pichanzorlar (j_3) raqami; h - cheklovchilar raqamlari; i - ozuqa guruhi turlarining raqami. Noma'lumlar: $x_j - i$ - ekinlar turi, ko'p yillik daraxtlarning maydoni (J_1, J_2); x_1, x_2 - yaylovlar, pichanzorlar maydoni; \bar{x}_j - sotib olinadigan ozuqa hajmi; y_j - takroriy ekinlarning hajmi; z_j - oraliq ekinlarning hajmi. Cheklangan resurslar: A_1 - sug'oriladigan maydonlar hajmi, A_2 - haydaladigan lalmi yerlar hajmi, A_i - ko'p yillik ekin hajmi; A_3, A_4 - pichanzorlar va yaylovlarning hajmi; B_i^{vmax} - chorvachilik ozuqalariga ehtiyojlarning maksimal hajmi; B_i^{vmin} - uning minimal hajmi; L_i - sotib olinadigan ozuqa limiti; $a_{ij}^{min}, a_{ij}^{max}$ - almashlab ekishning minimal va maksimal hajmi; Q_i - dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining shartnoma asosida yetkazib berish hajmi; λ_{ij} - ekinlar urug'larini ekish meyorlari; s_i - mahsulotning sotish narxi. Hisoblanadigan ko'rsatkichlar: π_i, π'_i - ikkilamchi yoki takroriy ekinlarning umumiy ekin maydonidagi ulushi; s_{ij} - ekinlar va ko'p yillik mevali daraxtlar hosildorligi; w_i^l - 1 gektarga mehnat va vositalar xarajatlariga talab me'yorlari.

Ushbu belgilashlarda birinchi blok modelining umumiy ko'rinishi chiziqli tenglamalar shakliga ega bo'ladi, ya'ni:

quyidagi shartlar bajarilganda, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining maksimal qiymatini (F -daromad) ta'minlaydigan $\{x_j, \bar{x}_j, y_j, z_j, x_1, x_2\}$ noma'lumlarni topish talab etiladi:

$$F = \sum_{j_1} s_i s_u x_j + \sum_{j_2} s_i s_u x_j + \sum_{j_5} s_i s_u x_j + \sum_{j_6} s_i s_u x_j \rightarrow \max;$$

$$\sum_{j_1} x_{ij} \leq A1; \sum_{j_2} x_{ij} \leq A2; \sum_{j_3} x_{ij} \leq A3; \sum_{j_4} x_{ij} \leq A4; (3)$$

$$a_{ij} \leq x_j \leq a_{ij}; a_{ij} \leq \sum x_2 \leq a_{ij}; (4); \sum_j \pi_i x_j = \sum y_j; \sum_j \pi_i x_j = \sum z_j; (5)$$

$$\sum_{jtg_1g_2} q_{ij} x_j \leq B_i^{max}; \sum_{jtg_1g_2} (\sum_{h=1} q_{ij}) x_j \geq B_i^{min}, (6)$$

$$\sum_{jtg_2} \bar{x}_{ij} \leq L_i; (7);$$

$$\sum_{j_1} s_{ij} x_j + \sum_{j_2} s_y x_j + \sum_{j_4} s_y x_j + \sum_{j_4} s_y x_j + \sum_{j_5} s_y x_j \geq Q_i; (8)$$

$$\sum_{j_3} s_{ij} x_j \geq Q_i; (9); (x_j, \bar{x}_j, u_j, z_j, x_1, x_2) \geq 0. (10)$$

Ushbu modelda qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan maksimal daromad (F) olish mezoni qabul qilingan. Modelga yer resurslari va maydonlarini cheklash (3) sharti; (4) shart ekin maydonlarida almashlab ekishni ta'minlaydi. Takroriy va oraliq ekinlar hajmini aniqlash uchun (5) shart kiritiladi. Ozuqa ishlab chiqarish va iste'mol qilish balansi (6) - (7) cheklovlar bilan ta'minlanadi. (8) cheklov sotib olinadigan ozuqa hajmi bo'yicha kiritildi. (9) cheklov yordamida mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. (10) shart o'zgaruvchilarning manfiy bo'lmashligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada ikkinchi blok model va algoritmlari o'g'itlar, urug'lar, ekish materiallari, ishchi kuchi va boshqa resurslarga bo'lgan ehtiyojlarni hamda mahsulot taqsimoti variantlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Ushbu blokda hududlarni ijtimoiy rivojlantirish dasturi ko'rsatkichlarini prognozlashning quyidagi algoritmlari ishlab chiqilgan:

1. Turar joyga ehtiyojning o'sishi 1 kishini ratsional ta'minlash me'yorlari (h_n) va aholi soni o'sishining (ΔA) hosilasi sifatida aniqlanadi:

$$E = N - \gamma + (\Delta N)\Delta N = h_n \Delta N, (11)$$

2. Aholini turar joy fondi bilan ta'minlash darajasi (N) aholining soni (A) va aholi jon boshiga turar-joy bilan ta'minlanganlik (h_n) va real (h_f) ta'minlanganlik orasidagi farqdan hosila sifatida anqlanadi:

$$N = (h_n - h_n)CH, (12)$$

3. Chakana savdo va umumiy ovqatlanish maydonlariga ehtiyoj (ΔT) 10000 kishiga to'g'ri keladigan ratsional me'yor (a_n) va aholi sonining o'sishini (ΔA) ko'payishi bilan hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash algoritmi quyidagicha: $R = T - \alpha + \Delta A \Delta A = 0,0001 \cdot a_n \cdot \Delta CH, (13)$

Qishloq hududini savdo korxonalari tarmoqlari bilan real ta'minlanganligi savdo maydonchalari va ekin maydonlari bilan me'yoriy (a_n) va real (a_f) ta'minlanganliklari orasidagi farq va aholining sonini (A) hisobga olish bilan aniqlanadi. Savdo tarmoqlari bilan real ta'minlanganlik ko'rsatkichini (T) hisoblash algoritmi quyidagicha:

$$T = 0,0001 (a_n - a_f) A, (14)$$

4. Aholi sonining o'sishida (ΔA) maktab o'quvchilarining ulushi (r_1) va maktabgacha yoshdagi (r_2) bolalarning ulushi, umumiy ta'lim maktablari va maktabgacha tarbiya muassasalarini ishdan chiqishi (β) hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$U = B - \beta + \Delta B_v + \Delta B_3, (15)$$

5. Klub muassasalarining zarur soni (L) ularning mavjudligi (K), real (Ch_f) va me'yoriy (Ch_n) aholi soni, ularga bo'lgan ehtiyojning o'sishi (ΔK) va ishdan chiqishi (k) asosida aniqlanadi, ya'ni: $L = K - k + \Delta K$, (16)

Bunda istiqbolida aholining o'sishi hisobiga klub muassasalariga bo'lgan ehtiyoj (ΔK) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta K = \frac{CH_f - CH_n + \Delta CH}{CH_n}, (17)$$

6. Sog'liqni saqlash muassasalariga bo'lgan ehtiyoj (D_1) ratsional me'yorlar (D_2) va kasalxonalaridagi joylarning real soni, shuningdek, boshqa tibbiyot muassasalarining quvvatlari (D_F), ularning ishdan chiqishi (D_γ), 10000 kishiga ratsional ta'minot me'yorlari (α) va sog'liqni saqlash muassasalarining loyihaviy quvvati (D_r) asosida aniqlanadi, ya'ni:

$$D = D_2 - D_F - D_\gamma D_N = 0,0001 (CH + \Delta CH), D_1 = \frac{D_r}{D_p}, (18)$$

Shunday qilib, yuqorida ishlab chiqilgan algoritmlar kompleksi qishloq hududiy tizimlarining turar joy va ijtimoiy dasturi ko'rsatkichlarini asoslashga va ijtimoiy harakatlarning strategik yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariining prognozlarini”** deb nomlangan uchinchi bobida Xo‘jayli tumanida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirish, asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish, byudjet daromadlari va xarajatlarini istiqbolida o'zgarishlari tahlil va prognoz qilingan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotida Xo‘jayli tumani muhim o‘rin tutadi. Tuman 1927-yilda tashkil topgan. Unda hozirgi kunda 124,3 ming kishi yashaydi. Tumanda 7 ta qishloq, 18 MFY va 64 ta qishloq aholi hududlari faoliyat yuritadi.

